

PAPER

ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDAGI IQTISODIY SIYOSATI: ASOSIY YO'NALISHLARI VA RIVOJLANISHI

Sevinch A'zam qizi Nematillayeva^{1, *}

¹Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti magistratura 1-bosqich talabasi

*sevinch.rm@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada Rossiya imperiyasining XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Turkiston hududida olib borgan iqtisodiy siyosati tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor imperiya tomonidan ishlab chiqilgan yer-suv siyosati, soliq tizimi, transport va infratuzilma rivoji hamda savdo-sanoat faoliyatining yo'nalishlariga qaratilgan. Tahlil davomida siyosatning Turkiston jamiyatiga ko'rsatgan ijobiy va salbiy ta'siri ochib beriladi.

Key words: Rossiya imperiyasi, Turkiston, iqtisodiy siyosat, soliq, yer-suv islohoti, temiryo'l, sanoat.

Kirish

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo hududlarini, xususan Turkistonni bosib olib, bu yerda o'zining mustamlakachilik siyosatini yuritishga boshladi. Bu siyosatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri iqtisodiy yo'nalish bo'lib, u orqali imperiya mintaqani o'z ehtiyojlariga moslashtirishga intildi. Ushbu maqola aynan shu iqtisodiy siyosatning shakllanishi, asosiy yo'nalishlari va Turkiston hayotiga ta'sirini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot tarixiy-tahliliy yondashuvi asosida olib borildi. Asosiy manba sifatida mavzuga oid mavjud bir qator adabiyotlar, Rossiya va O'zbekiston olimlarining ilmiy maqolalari, davrga oid rasmiy statistik to'plamlar va monografiyalardan foydalanildi. Tahlil asosan XIX asr oxiri –XX asr boshlarini qamrab oladi.

Tahlillar va natijalar

Rossiya imperiyasi Turkistonda olib borgan iqtisodiy siyosat quyidagi asosiy yo'nalishlarda ko'zga tashlandi:

- Yer-suv siyosati. Rossiya imperiyasi Turkistonda mustahkamlanishi bilan birinchi navbatda yerga egalik masalasini nazoratga oldi. 1886-yildagi "Turkiston o'lkasini boshqarish nizomi" ga muvofiq, yerlar davlat mulki deb e'lon qilindi. Mahalliy aholining avlodidan-avlodga qolib kelgan merosiy yerlari "shtat yerlari" deb qayta tasniflandi. Bu o'zgarishlar orqali rus ko'chmanchilariga (asosan Pyotr, Astrakhan, Saratov viloyatlaridan) katta yer maydonlari ajratildi. 1906–1916-yillar davomida 500 mingdan ortiq rus dehqoni Turkistonga joylashtirildi. Bu esa mahalliy aholi, ayniqsa, dehqonlar o'rtasida yer tanqisligini kuchaytirdi, ijtimoiy norozilikni oshirdi.

- Soliq va boj tizimi. Turkiston aholisi Rossyaning umumimperiaviy soliq tizimiga kiritilmadi, balki unga alohida, ko'proq ekspluatatsiyaga asoslangan moliyaviy tizim tatbiq etildi. Soliq siyosati mahalliy iqtisodiy tashabbuslarni cheklab, Turkiston iqtisodiyotining Rossiyaga qaramligini kuchaytirdi.

- Transport va infratuzilma rivoji. Imperiya tomonidan transport kommunikatsiyasining rivojlantirilishi, ayniqsa temiryo'l qurilishi, iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishiga aylandi (Transkaspian temiryo'li (Krasnovodsk-Ashxobod-Chorjo'y), Toshkent-Orenburg temir yo'li). Bu yo'nalishlar orqali paxta, jun, teri, qimmatbaho metallar kabi xomashyo Rossiyaga olib ketilgan. Temiryo'l faqat eksport-import uchun emas, balki harbiy garnizonlar va ma'muriy nazoratni mustahkamlashga xizmat qilgan. Ammo shu bilan birga, ayrim shaharlar (Toshkent, Samarqand, Qo'qon)da bo-

zor aloqalari faollashdi, kommunikatsiya imkoniyatlari oshdi.

- Savdo-sanoat siyosati. Rossiya savdogarlari uchun Turkistonda maxsus iqtisodiy muhit yaratildi. Ular: soliqliq imtiyozlaridan foydalangan, maxsus kredit siyosati asosida qo'llab-quvvatlangan, monopoliya huquqlariga ega bo'lgan.

Mahalliy hunarmandchilik va kichik ishlab chiqarish esa raqobatga bardosh bera olmadi. Sanoatning asosan Rossiya kapitali hisobiga tashkil etilgan shakllari quyidagilar edi:

• Paxta tozalash zavodlari (Toshkent, Qo'qon, Marg'ilon): eksportga yo'naltirilgan.

• Yog'och va metall ishlov berish ustaxonalari: Rossiyadan keltirilgan uskunalar bilan ishlagan.

Muhokamaralar

Mustamlakachilik siyosati doirasida Rossiya Turkistonda bir nechta asosiy yo'nalishlarda islohotlarni amalga oshirdi, ammo bu islohotlar tub mohiyatiga ko'ra imperiya manfaatlariga xizmat qilgan va mahalliy xalq manfaatlarini bilan to'qnashib kelgan.

Turkiston iqtisodiyoti Rossiya markaziga xizmat qiluvchi periferiyaga aylantirildi. Mintaqada paxta yetishtirish asosiy yo'nalishga aylantirildi, bu esa oziq-ovqat ekinlari ekinishini qisqartirdi va qurg'ochilik yillarida ocharchiliklarga olib keldi. Shuningdek, moliyaviy resurslar ham markazga oqib borar, mahalliy infratuzilma esa faqat eksport-importni ta'minlash maqsadida rivojlantirilgan.

Yerni yo'qotgan mahalliy dehqonlar daromadsiz holatga kelib qoldi, rus ko'chmanchilari esa soliqdan ozod etilgan. Bu holat mahalliy aholining iqtisodiy va ijtimoiy bosimini kuchaytirgan, sinfiy differentsiallashtirishga olib kelgan. Bu siyosat mintaqada mustamlakachilikka qarshi norozilik kayfiyatini kuchaytirdi va keyinchalik bosmachilik harakatlariga zamin yaratdi.

Turkiston o'lkasini iqtisodini to'la bo'ysundirishda mustamlakachilik ma'muriyati agrar soha bilan izchil shug'ullana boshladi. Iqtisodiyotdagi o'zgarishlar imperiyaning o'lkadagi manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ya'ni bir tomonlama olib borildi. Ishlab chiqarish va savdo-sotiq Rossiya imperiyasi va u orqali boshqa davlatlar bilan aloqalarning kengayishi natijasida rivojlanib bordi. Ayniqsa, imperiya to'qimachilik sanoati uchun paxta yetishtirish ko'paydi. Bu o'lkada boshqa turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarining kamayishiga, ayniqsa, g'allaning tanqisligiga sabab bo'ldi. Bu davrda boshqa sohalarga qaraganda sanoatning paxta xomashyosiga dastlabki ishlov berishga mo'ljallangan sohasi rivojlandi. Paxtani faqat tozalash va yog'ishlab chiqarish sohasigina yo'lga qo'yilib, paxta xomashyosidan tayyor mahsulot tayyorlash imperiyaning markaziy gubernalarida bajarilgan. 1867-1900-yillarda Turkiston general-gubernatorligida ishga tushirilgan 175 ta sanoat korxonasi bo'lib, ularning aksariyat ishlari qo'l mehnati bilan bajarilgan. Mahalliy sanoat ishchilari xonavayron bo'lgan dehqonlar yoki ishsiz qolgan hunarmandlar hisobidan ortib borar edi. Korxonalarda ish kuni 16 soat bo'lib, ishchilarning huquqini himoya qiladigan tashkilotlar bo'lmagan, ishchilar shikoyat bilan hech kimga murojaat qila olmaganlar.

Rossiya imperiyasining markaziy rayonlarida ishlab chiqarilgan sanoat va boshqa turdagi mahsulotlarning o'lkaga kirib kelishi natijasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar -hunarmandlar mahsulotlarining bozori kasodga uchrab, ularning kamayishiga olib keldi. Rossiyadan keltirilgan arzon narxlardagi zavod va fabrika mahsulotlari mahalliy hunarmandlar tomonidan ishlab chiqiladigan mahsulotlar bozorini sindirdi. Buning natijasida o'lkada ko'plab odamlar, ayniqsa, hunarmandlar ishsiz qoldi. Rossiya sarmoyasi o'lkada ishlab chiqarishni rivojlantirishga emas, balki mavjud tabiiy boyliklarni o'zlashtirishga, arzon xomashyoga ega bo'lishga, ularni tashib ketishga, o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni bu o'lkada sotishga qaratildi. Shu maqsadda savdo-sotiq sohasini va temiryo'llarni kengaytirishga katta e'tibor berildi. Podsho hukumati tomonidan o'lkadan

olinadigan foydalar bu hududni rivojlantirish uchun emas, balki imperiya xazinasini to'ldirish, Rossiya savdogar va sarmoyadorlarini boyitishga xizmat qildi.

Rossiya imperiyasi Turkistonni o'z tarkibiga qo'shib olgach, soliqlar tizimini joriy qila boshladi. Keyinchalik soliqlik majburiyatlari Turkistonda o'troq sharoitda yashayotgan dungan, uyg'ur, rus va ukrain aholi qatlamiga ham solinadi. Soliqlik va yig'imlardan tashqari, mahalliy aholi har yilda mehnat va xo'jalik majburiyatlarini ham bajarishi shart edi. Soliqlar shakli va hajmi bilan bog'liqlik savollar, ularni xalqdan qay tarzda undirish masalalari mustamlakachi hukumat siyosatining asosini tashkil qilardi. Soliqlik bosimi, boj to'lovlari va monopolistik siyosat mahalliy sanoatchilar, hunarmandlar va savdogarlar faoliyatini chekladi. Mahalliy iqtisodiy qatamlar sust rivojlandi. Bu uzoq muddatda Turkiston iqtisodiyotining ichki zaifligiga sabab bo'ldi.

o'rta Osiyoga temiryo'llarning o'tkazilishi Rossiya iqtisodiyoti uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'lish bilan birga harbiy-strategik maqsadlarni ham ko'zlab qurilgan edi. o'rta Osiyoning bosib olingan hududlarida Rossiya imperiyasining mustahkam o'rtnashib olishi va mustamlakachilik siyosatining keng qamrovli olib borilishida temiryo'llar muhim o'rin tutdi. Harbiy qo'shinlar va qurol-aslahalarni Krasnovodskdan Qizilartvaga qadar Kavkazdan o'rta Osiyoga tashish uchun temiryo'l qurildi. So'ngra temiryo'l qurilishi Ashxobodgacha davom ettirildi. 1888-yili Samarqandga dastlabki poyezd keldi, 1899-yilda esa temiryo'l Toshkent orqali Andijongacha qurib bitkazildi. Rossiya harbiy qurolli kuchlarining asosiy bazalari Kavkazda joylashgan bo'lib, u yerdan Kaspiy dengizi orqali kemada tez kechib o'tish mumkin edi. Krasnovodskdan esa temiryo'l bilan Samarqand, Toshkent va Andijonga yetib kelish oson bo'ldi. Endi harbiy qism larni Krasnovodskdan Andijongacha bo'lgan 3 ming kilometrdan ziyod masofaga ko'chirish muammo bo'lmay qoldi. Turkistonda paxta ekini keng tarqalishi va Rossiya kapitali joriy etilishi bilan XX asr boshlarida temiryo'llarning nafaqat harbiy, balki iqtisodiy ahamiyati ham ko'tarildi. 1905-yilda Orenburgdan Toshkentga qadar temiryo'l qurib kelindi. Keyin Farg'ona viloyatida ichki temiryo'l liniyalari qurilgan. Natijada Toshkent Rossiyaning boshqa hududlari bilan bog'lanish imkoniga ega bo'ldi. Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasida faqatgina xom ashyoga birlamchi ishlov beruvchi sanoat korxonalariga asos solib, o'lkaga Rossiyadan tayyor mahsulot keltirdi. Bu mahsulotlar o'z navbatida o'lkadagi hunarmandlarning ishlab chiqargan mahsulotlarini raqobatga bardosh bera olmay sinishiga olib keldi. Buning oqibatida ular ishsiz qolib, zavod va fabrikalarda yollanma ishchi yoki bo'lmasa mardikorchilik qilishga majbur bo'lganlar.

Xulosa

Rossiya imperiyasining Turkistondagi iqtisodiy siyosati mintaqaga yangicha iqtisodiy munosabatlarni olib kirgan bo'lsa-da, uning asosiy maqsadi mustamlakachilik manfaatlariga xizmat qilish bo'lgan. Mintaqadagi iqtisodiy resurslar Rossiya markazi foydasiga yo'naltirilgan, bu esa Turkistonning ichki iqtisodiy rivojiga to'sqinlik qilgan. Darhaqiqat, mustamlakachilik sharoitida ham ota-bobolarimizning erkinlikka, taraqqiyot va istiqbolga bo'lgan azaliy intiqlik kayfiyati so'nmadi. Xalqimizning yurak-bag'riga teran o'rnanishgan mustaqillik va ozodlik tuyg'usi tobora qudratli kuchga aylana bordi va pirovard natijada O'zbekiston istiqbolli tantanasi uchun mustahkam zamin hozirladi.

Adabiyotlar

1. Ismoilova J. XIX asr II yarmi -XX asr boshlarida Toshkentning yangi shahar qismi tarixi -Toshkent: Fan va texnologiya, 2004. -141 b
2. Зиёев Х. Тарих - ўтмиш ва келажак кўзгуси. (Тарихнинг долзарб масалалари). -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги

Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. –288 б

3. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига қарши кураш. –Тошкент, 1998. – 477 б
4. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари). –Тошкент: Шарқ, 2006. –352 б
5. Мусаев Н. XIX асрнинг II ярми – XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришининг шаклланиши. –Тошкент: IQTISODMOLIYA, 2008. – 167 б
6. Жумаев У. Россия империясининг Туркистондаги солиқ сиёсатининг шаклланиши: асосий босқичлари ва тараққиёти: Тарих фан, ном.... дисс. Тошкент, 2012.